

INGLIZ TILIDA SUB'YEKT KATEGORIYASI KONSEPTUAL VOQEALANISHINING FUNKSIONAL TABIATI

Yuldasheva Dilorom Aliyevna

Qo'qon DPI o'qituvchisi Telefeon raqami: +998912043401.

Email: dilyahonim@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7952755>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilida subyekt kategoriyasining konseptual voqealanishi va unga xos xususiyatlar ifodalangan. Shuningdek, maqolada subyekt “objekt” kategoriyasining funksiyalari ham ifodalangan.

Kalit so'zlar: subyekt, “object”, konsept, kategoriya

So'nggi o'n yilliklar davomida olib borilgan kognitiv tilshunoslikga doir tadqiqotlarning diqqat markazida, inson ongida paydo bo'ladigan bilim, tasavvur usullari va shuningdek, til birliklarining konseptual mohiyati jamlangan. Konseptual mazmun tilning turli qatlamlari orqali beriladi. Ammo ko'p tilshunoslarning ta'kidlashlaricha konseptual ma'lumotning eng muhim qismi, til nuqtai nazaridan eng ahamiyatli ma'no-mazmunlar grammatikada va avvalambor morfologiyada to'plangan. [Safarov Sh., 26-27 bb.] Sub'yekt — predmet, narsa, har qanday moddiy borliq, materialning nisbatan mustaqil va barqaror shakli. Predmetlar xususiyati va ular orasidagi munosabatlar ongdan tashqari va undan mustaqil bo'lganligi uchun xususiyat va munosabatlarni ham sub'yekt deb qarash kerak. Mantiqda fikrimiz nimaga qaratilgan bo'lsa, u ham predmet deb yuritiladi. Bu ma'noda muhokama, tushuncha, xulosa chiqarishni ham predmet deb hisoblash mumkin.

Mazkur termin lotin tilidagi “subject” so'zidan rivojlangan bo'lib uning ma'nosi sub – “ostki, ostidagi”, ject – “tashlangan, joylashtirilgan, qo'yilgan, yotgan” ma'nolarini bildiradi. Xuddi shu o'zak yordamida yasalgan “proyekt” so'zini keltirishimiz mumkin. “Pro” - oldinda-joylashgan, oldindagi, oldinda turgan” degan ma'nolari bildiradi. Lotin tilidan bu so'z rus tiliga “подлежащий”, ya'ni so'zma-so'z, boricha tarjima qilingan. Mantiqda hukm chiqarish ob'yekti ma'nosini bildiradi. Mantiq nazariyasida sub'yekt ikki ma'noda ishlatiladi:

1. Ob'yekt haqidagi tasavvur ma'nosida;
2. Ontologik ma'noda esa borliqdagi ob'yektning o'zini bildiradi.

Grammatik an'anada “subyekt” so'zi hukm fikrning predmeti, ya'ni fikr chiqarish uchun ob'yekt bo'lib xizmat qilgan gap bo'laligini bildirish uchun ishlatiladi. Ingliz tilida va shu kabi ko'p tillarda sub'yekt so'zi mantiqiy va grammatik kategoriyalarni teng ifoda qilgani uchun ba'zan terminologik tushunmovchilik yuzaga keladi. Masalan, subject - grammatik sub'yekt ega ammo mantiqiy jihatdan ob'yekt to'ldiruvchi. O'zbek tilida bu narsa kuzatilmaydi, chunki mantiqiy sub'yekt - sub'yekt termini bilan, grammatik sub'yekt esa “ega” termini bilan ifodalanadi. Rus tilida mantiqiy sub'yekt - sub'yekt so'zi yordamida, grammatik sub'yekt esa “подлежащий” atamasi yordamida beriladi. Dissertasiya ustida ish olib borayotgan yosh olimlar ingliz tilida dissertasiya ob'yektini “subject” shaklida tarjima qilish kerakligini tushuna olmay ko'p qiynalishadi. Sub'yekt terminining quyidagi turlari va ma'nolari bor. 1) Grammatik sub'yekt (mos ravishda “ega”) gap sintaktik strukturasiga tegishli termin va tushuncha (ifoda plani). 2) Semantik sub'yekt gapning mazmuniy strukturasiga oid tushunchadir (agens - ish-harakat bajaruvchisi; patsiens - ish-harakat ob'yektidir). Bu erda patsiens ko'p ma'noli bo'lganligi uchun, ya'ni belgi va holatning egasi bo'lganligi uchun ayrim paytlarda semantik ob'yekt deb qaraladi, baholanadi, ataladi. 3) Kommunikativ sub'yekt.

Axborotning mavzusi, ya'ni axborot, topic. 4) Psixologik sub'yekt (birlamchi tasavvur). 5) Mantiqiy sub'yekt (Hukmning bir qismini tashkil etuvchi gap bo'lagi).

Sub'yektning bu turlari ko'pincha bir vaqtda ifodalangaligi uchun tarkibida turlicha voqealanishi mumkin. Masalan, "Qishlog'imizda fermer xo'jaligining egasi brigadirimiz Abdunazarning xotini Iqbolaning onasi bo'ldi". Bu gapni yuqoridagi kriteriyalarga asosan ko'rib chiqaylik. Axborotning birlamchi kelib chiqish o'rni - qishlog'imizda - psixologik ega gapda o'rin holi vazifasida; tema vazifasida esa - brigadirimiz, mantiqiy sub'yekt va grammatik ega - xotini. Chunki predikat tomon bildirilgan ish-harakat ayni shu xotin tomonidan bajarilgan. Sub'yekt tushunchasini tahlil qilish ega, tema (topic) va agens bilan o'zaro funksional aloqaga kirishishiga to'g'ri kelar ekan sub'yekt ulardan biriga mos keladi. Sub'yektning ma'nosi bu qatordan birining ma'nosiga to'g'ri kelishi mumkin (masalan - mantiqiy sub'yekt) yoki bo'lmasa u universal sub'yekt ma'nosini bildirishi mumkin, invariant vazifasini bildirishi mumkin.

Sub'yekt gapning semantik jihatdan tashkillanishida muhim rol o'ynaydi. Uning nolisoniy tashqi dunyoga yo'naltirilgan asosiy semantik vazifasi - nutqqa ob'yekt bo'lib xizmat qilayotgan narsani identifikatsiya qilish (farqlash vazifasidir). Bu vazifani bajarish uchun odatda denotat tomon yo'naltirilgan ma'noga ega bo'lgan so'zlar - ko'rsatish olmoshlari, kishilik olmoshlari, atoqli otlar va ayrim ma'no guruhlariga tegishli turdosh otlar ishlatiladi. O'zining signifikatsiv ma'nosi yordamida sub'yekt predikat tomon yo'naltirilgan bo'ladi va uni interpretatsiya qilish uchun muayyan shart-sharoit yaratadi. Sub'yektning predikat bilan aloqasi sub'yektning ikki xil funksiyasining shakllanishiga olib keladi. Narsaning aspektlashuvi funksiyasi (uning umumguruh va individual belgilarining belgilanishi).

Predikatning semantik kategoriyasi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Bu funksiyalar qatoriga anaforik funksiyani ham kiritishimiz mumkin.

Semantik retrospektivlik esa o'z navbatida nutq ob'yekti haqida hozirgacha ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlar bilan implisit assosiasiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu jumladan presuppozitsiyalarni ham eslatib o'tish mumkin bo'ladi. Sub'yektning barcha 3 vazifasi identifikatsiya, ispektizatsiya va anaphora alohida olingan har bir aniq gapga xos hodisadir. Umumiydagi ma'noni bildiruvchi va borliqqa bevosita aloqador bo'lmagan narsalar haqidagi dunyodan uzoqlashgan sari sub'yektning ro'lida o'zgarish sodir bo'la boshlaydi: Gapning identifikatsiyalovchi vazifasi eng asosiy vazifani bajarmay qo'yadi. Natijada uning predikat yo'nalishi hal qiluvchi rolni bajarishini o'z zimmasiga oladi. Sub'yekt ob'yekt tomon yo'naltirilgan faoliyatning manbai bo'lib xizmat qiladi. Sub'yekt termini falsafa va boshqa fanlarda turli tushunchalarni bildirish uchun ishlatiladi. Masalan, Aristotel sub'yekt atamasini yakka, alohida olingan mavjudlikni hamda materialni bildirish uchun ishlatar edi. Material esa bu shakllanmagan substansiyadir. O'rta asr faylasuflari sub'yekt atamasini barcha narsalarda mavjud bo'lgan qandaydir real narsalarni bildirish uchun ishlatganlar. Ularning fikricha ob'yekt faqat aqliy konstruktlardagina mavjud bo'lgan. Sub'yektning hozirgi kunda qabul qilingan ma'nosi Dekartga borib taqaladi. Dekartning nazariyasida sub'yekt va ob'yektni qarshi qo'yish bilish nazariyasining boshlang'ich punkti, asosi bo'lib xizmat qiladi. Mantiqiy sub'yektning har bir gapda ayrim bo'lak bilan ifodalanishi shart emas: ba'zan sub'yektning ma'nosi kesimning o'zidan bilinib turadi. Lekin sub'yekt va predikatning har biri ayrim-ayrim so'z bilan ifodalanmagan bo'lsa, gap ikki tarkibli sanalmaydi. Sub'yekt va predikatning ikkalasi bir so'z, bir guruh bilan ifodalanganda, gap sintaktik jihatdan ikki

sostavga ajralmaydigan holda bo'ladi. Bu bir tarkibli gaplar. Sub'yekt qanday so'z turkumi bilan ifodalangan bo'lmasin, u bosh kelshikda bo'ladi. Bu shakl uning absolyut hokimlik holatini ko'rsatuvchi grammatik belgilardan biridir. Sub'yektning sintaktik holati tartibdan ham bilinib turadi. Sub'yekt vazifasida keluvchi tipik so'zlar va sub'yektiv xarakterdagi — t kabi qo'llaniladigan olmoshlardir. Shuningdek, grammatik xususiyatlari jihatidan ot tusida bo'lgan fe'llar - infinitiv, sifat-dosh va gerundiy kabilar ham sub'yekt vazifasini o'ziga olish salohiyatiga ega. Bulardan boshqa so'zlar sub'yekt pozitsiya egallash uchun substantivlashgan bo'lishi (transpozitsiyani boshidan kechirgan bo'lishi, konversiyalangan yoki bo'lmasa antropomorfizatsiya hodisasi mahsuli bo'lishi kerak.

References:

1. Арутюнова Н.Д. Прагматика // Языкознание. Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. - М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. - С. 389-390.
2. Асадов Р.М. Структурал синтаксисда валентли компонентлар таҳлили // Хорижий филология, 2019. - № 3. - Б. 27-35.
3. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. - Тошкент, 2002. - 60 б.
4. Aliyevna, Y. D. (2023). Study Of Concepts Expressing The Relationship Between New And Old Information (Theme And Rheme) Expressed In A Sentence. Journal of Positive School Psychology, 551-554.
5. Yuldasheva, D. A. (2021). SOME ESSENTIAL TRENDS IN TEACHING SECOND LANGUAGE VOCABULARY. Academic research in educational sciences, 2(6), 782-786.
6. Dilorom, Y. (2022). FUNCTIONAL NATURE OF CONCEPTUAL OCCURRENCE OF SUBJECT CATEGORY IN ENGLISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 398-401.
7. Dilorom, Y. (2022). COGNITIVE GRAMMAR AND ITS SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(12), 223-229.
8. Popova, E. I. (2022). The Principle of Philology and Philological Analysis of the Word. International Journal of Social Science Research and Review, 5(8), 165-169.
9. Попова, Е. И. (2018). ТРАНСПОЗИЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ФОРМ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ. Интернаука, 12, 57.
10. Попова, Е. И. (2015). Работа над поэтическим словом как средство развития познавательного интереса учащихся. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 332-335).
11. Попова, Е. И. (2021). Контекстные основания транспозиции временных форм русского глагола. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(5), 150-155.
12. Goncharova, N. V. (2022). The Motive of Prayer, Passion and Gratitude in A. Kuprin's Novella "Garnet Bracelet" And S. Zweig's Novella "Letter of a Stranger". Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(12), 19-22.
13. Goncharova, N. V. (2022). The Union of Nature and Conscience in F. Dostoevsky's Novel "Crime and Punishment". International Journal of Social Science Research and Review, 5(7), 167-171.
14. Гончарова, Н. В. (2018). Роль древнерусской литературы в формировании

- высоко нравственной личности. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 519-520).
15. Гончарова, Н. В. (2022). Образ Москвы В Поэме МЮ Лермонтова «Песня Про Царя Ивана Васильевича, Молодого Опричника И Удалого Купца Калашникова». Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 378-382.
 16. Vasilievna, G. N. (2023). FOLKLORE TRADITIONS IN THE WORKS OF UZBEK WRITERS OF THE FIRST HALF OF THE TWENTIETH CENTURY. Gospodarka i Innowacje., 35, 133-137.
 17. Imomov, E. (2022). SOME COMMENTS ON PROFESSIONAL VOCABULARY IN THE LANGUAGES. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(3), 143-151.
 18. Abdikarimovich, I. E. (2022). LINGUOCULTURAL STUDY OF VOCABULARY DESCRIBING PROFESSIONAL TERMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.
 19. Sayyora, A. (2022). SPEECH SAMPLES AS ONE OF THE EFFECTIVE WAYS OF ENRICHING SCHOOLCHILDREN'S SPEECH. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(12), 404-406.
 20. Alimsaidova, S. A. (2015). Didactic principles in teaching a non-native language International scientific journal" Young Scientist".
 21. Alimsaidova, S. A. (2017). The place of pedagogical technologies in teaching at the university International scientific journal" Young Scientist".
 22. Sayyora, A. (2022). METHODS OF SELECTING TEXTS WHEN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
 23. Гончарова, Н. В. (2022). Образ Москвы В Поэме МЮ Лермонтова «Песня Про Царя Ивана Васильевича, Молодого Опричника И Удалого Купца Калашникова». Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 378-382.
 24. Vasilievna, G. N. (2023). FOLKLORE TRADITIONS IN THE WORKS OF UZBEK WRITERS OF THE FIRST HALF OF THE TWENTIETH CENTURY. Gospodarka i Innowacje., 35, 133-137.
 25. Гончарова, Н. В. (2018). Роль древнерусской литературы в формировании высоко нравственной личности. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 519-520).
 26. Goncharova, N. V. (2022). The Motive of Prayer, Passion and Gratitude in A. Kuprin's Novella" Garnet Bracelet" And S. Zweig's Novella" Letter of a Stranger. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(12), 19-22.
 27. Popova, E. I. (2022). The Principle of Philology and Philological Analysis of the Word. International Journal of Social Science Research and Review, 5(8), 165-169.
 28. Попова, Е. И. (2018). ТРАНСПОЗИЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ФОРМ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ. Интернаука, 12, 57.
 29. Попова, Е. И. (2015). Работа над поэтическим словом как средство развития познавательного интереса учащихся. In Молодежь и наука: реальность и будущее (pp. 332-335).
 30. Попова, Е. И. (2021). Контекстные основания транспозиции временных форм русского глагола. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(5), 150-155.
 31. Rajapova, M. (2022). Linguocultural Features of Allegorical Means Used in the Literary Text. Scienceweb academic papers collection.
 32. Malika, R. (2021). EFFECTIVE WAYS OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ISSN: 2249-7137 Vol. 11.